XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 17-aprel VI-84-69-8-0-K/24 Surxondaryo viloyati

Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining 2024-yil 29-yanvardagi “Surxondaryo viloyatida issiqlik va issiq suv xizmatlari uchun tariflar (narxlar)ni ma’qullash to‘g‘risida” VI-82-20-8-0-K/24-sonli qaroriga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 24-moddasiga asosan xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashi **qaror qiladi:**

1. Surxondaryo viloyati hokimligining 2024-yil 13-martdagi 03-03/459-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining 2024-yil 29-yanvardagi “Surxondaryo viloyatida issiqlik va issiq suv xizmatlari uchun tariflar (narxlar)ni ma’qullash to‘g‘risida” VI-82-20-8-0-K/24-sonli qarorining 1-ilovasi bekor qilinsin hamda ilovaga muvofiq qayta tasdiqlansin.

3. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (D.Djo‘rayeva) zimmasiga yuklatilsin.

4. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Sessiya raisi CHORIYEV ABDURAIM RAVSHANOVICH

Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati
Kengashining
2024-yil 17-apreldagi
VI-84-69-8-0-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Surxondaryo viloyatida belgilangan markaziy issiqlik va issiq suv xizmatlari uchun belgilangan
TARIFLAR (NARXLAR)

T/r	Xizmat turi	O‘lchov birligi	Amaldagi narx	Tavsiya etilayotgan narx
Qaror rasmiy e’lon qilingan sanadan				
1	Issiqlik energiyasi (aholi uchun)	1 m^2 oyiga	1049,0	1206,35
2	Issiq suv (aholi uchun, hisoblagichsiz)	1 kishi oyiga	9147,6	10519,74
3	Issiq suv (aholi uchun, hisoblagich bilan)	1 m^3 issiq suv uchun	2795,0	3214,25
4	Yuridik tashkilotlar uchun issiqlik energiyasi	1-Gkal	168291,4	168291,4
2024-yil 1-sentabrdan				
1	Issiqlik energiyasi (aholi uchun)	1 m^2 oyiga	1049,0	1387,30
2	Issiq suv (aholi uchun, hisoblagichsiz)	1 kishi oyiga	9147,6	12097,7
3	Issiq suv (aholi uchun, hisoblagich bilan)	1 m^3 issiq suv uchun	2795,0	3696,38
4	Yuridik tashkilotlar uchun issiqlik energiyasi	1-Gkal	168291,4	168291,4